XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANİ KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-59-140-7-95-K/21 Ishtixon tuman hokimligi

Ishtixon tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuni, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 59-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, Ishtixon tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 118 834 850,0 ming so‘m, xarajatlari 184 591 291,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 65 756 441,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

- 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

- 2022-yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

- 2022-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 741 427,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjetidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi uchun ajratiladigan mablag’lar hajmi 8 707 136,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

7. 2022-yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 467 000,0 ming so‘m deb belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetlarini boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning xalq deputatlari tuman Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Ibragimov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Ibragimov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Bayzaqov) hamda tegishli tuman tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Ibragimov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (K.Yavkochdiyev)larga:

- budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

- soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

- tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Egamov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Ibragimov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.X.Negmatov**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
kengashining
2021-yil 30-dekabrdagi
VI-59-140-7-95-K/21-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Ishtixon tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami (ming.so‘mda)
JAMI		**118 834 850**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 856 800
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 789 450
3	Korxonalar aylanmasidan soliq	7 695 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 480 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 855 000
6	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	800 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 829 000
8	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	70 400
9	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	8 371 000
10	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 310 200
11	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 325 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 670 000
13	Yig‘imlar	2 771 000
14	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	15 901 000
15	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	9 059 000
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	17 052 000

Xalq deputatlari Ishtixon tuman
kengashining
2021-yil 30-dekabrdagi
VI-59-140-7-95-K/21-son qaroriga
2-ilova

2022-yil uchun Ishtixon tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

№	Nomlanishi	2022-yil (ming.so‘m)
1	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	8 718 066,0
2	Xalq ta’limi bo‘limi	9 700 660,0
3	Tibbiyot muassasalari	70 977 467,0
4	Madaniyat bo‘limi	3 762 086,0
5	Bolalar va o‘smirlar sport maktabi	3 423 985,0
6	Bandlikka ko‘maklashish markazi	610 291,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	1 884 237,0
8	Irrigatsiya bo‘limi	1 107 833,0
9	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 726 831,0
10	Moliya bo‘limi	1 040 666,0
11	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ishtixon tumanidagi muassasalar	526 285,0
12	Hokimiyat	80 298 788,0
13	Xalq deputatlari tuman Kengashi	181 500,0
14	Maxalla va oilani qullab-quvvatlash bo‘limi	632 596,0
	Jami xarajatlar	**184 591 291,0**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman kengashining
2021-yil 30-dekabrdagi
VI-59-140-7-95-K/21-son qaroriga
3-ilova

2022-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari)	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Korxonalar aylanmasidan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Ishtixon tumani	100	100	100	100	60	45	100	100